Yangi biologik faol birikmalarning COVID-19 virusiga qarshi ta’siri sinovdan o’tkazilmoqda

Hozirda O’zR FA Bioorganik kimyo instituti tomonidan yaratilgan “Rutan” preparatini “China-Uzbekistan medicine technical park” XK MChJ da ishlab chiqarishni yo’lga qo’yish maqsadida “China-Uzbekistan medicine technical park” texnoparki bilan litsenzion shartnoma rasmiylashtirildi.

Shuningdek, Institutda o’tkir respirator infeksion kasalliklarga qarshi ishlab chiqilgan 30 ta yangi biologik faol birikmalarni COVID-19 virusiga qarshi ta’sirini sinovdan o’tkazish maqsadida Shanxay tibbiy materiya institutiga yetkazib berildi. Hozirda ushbu birikmalarni COVID-19 virusiga qarshi ta’siri Shanxay tibbiy materiya instituti xodimlari tomonidan skrining qilinmoqda.

